

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT  
UNIVERSITETI**

**XUDAYQULOV RUSTAM FAYZIYEVICH**

**LALMI MAYDONLARGA DON EKISH SEYALKASI BUNKERI VA  
SHNEKLI TA‘MINLAGICHINI ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI  
ASOSLASH**

**05.07.01–Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari.  
Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor  
of philosophy (PhD) on technical sciences**

**Xudayqulov Rustam Fayzievich**

Lalmi maydonlarga don ekish seyalkasi bunker va shnekli ta'minlagichini  
ishlab chiqish va parametrlarini asoslash..... 3

**Худайкулов Рустам Файзиевич**

Обоснование параметров шнекового питателя и бункера богарной  
зерновой сеялки..... 21

**Khudaykulov Rustam Fayziyevich**

Justification of the parameters of the screw feeder and hopper of a dry grain  
seeder..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 42

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**XUDAYQULOV RUSTAM FAYZIYEVICH**

**LALMI MAYDONLARGA DON EKISH SEYALKASI BUNKERI VA  
SHNEKLI TA‘MINLAGICHINI ISHLAB CHIQISH VA  
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01–Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari.  
Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT–2025**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4734 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi [www.tiame.uz](http://www.tiame.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudayarov Berdirasul Mirzayevich,  
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy  
opponentlar:

Igamberdiyev Asqar Kimsanovich  
texnika fanlari doktori, professor

Ravshanov Shavkat Ulashovich  
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi  
huzuridagi Qishloq xo'jaligi texnika va  
texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.10.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «13» fevral soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko'chasi 39 uy. Tel./faks: (99871) 237-09-45 e-mail: [admin.@tiame.uz](mailto:admin.@tiame.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (359 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent, Qori Niyoziy ko'chasi 39 uy. Tel./faks: (99871) 237-09-45 e-mail: [admin.@tiame.uz](mailto:admin.@tiame.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «03» fevral kuni tarqatildi.  
(2025-yil «03» fevral dagi № 98 raqamli reestr bayonnomasi).



*[Signature]*  
**B.S.Mirzayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmi  
kengash raisi, t.f.d., professor

*[Signature]*  
**U.T.Quziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, PhD, dotsent

*[Signature]*  
**K.D.Astanaqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda aholi soni ortib borishi bilan birga oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan donga bo'lgan talab ko'payayotgan bir davrda don yetishtirish, ayniqsa uni ekishda energiya va resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Butun jahon oziq-ovqat tashkiloti (FAO) ning ma'lumotlariga ko'ra, "hozirgi vaqtda dunyo miqyosida 730 mln tonna boshqoqli don yetishtirilishini"<sup>1</sup> va bu ko'rsatkich oxirgi o'n yilda 15,3 % oshganligini hisobga olsak, don ekishda ish sifatini oshirish hamda resurslarni tejash o'z navbatida kam metall va energiya sarfiga ega ekish mashinalarini amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, lalmi maydonlarning reliefi o'ziga xos va asosan nishabli dalalardan iborat ekanligi uchun nishabliklarga mo'ljallangan seyalkalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblaniladi.

Jahonda don ekishda energiya va resurs sarfini kamaytirish imkonini beradigan texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan lalmi yerlarda don ekishda kam energiya va resurs sarflab, urug'larni sifatli ekilishini ta'minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish orqali ekish sifatini oshirish hamda sarf xarajatlarni kamaytirish imkonini beradigan don ekish seyalkalarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan ish jarayonida nishabli yerlarda urug'larning bir tekis miqdorlanishi va ekin maydoni bo'ylab bir tekis ekilishini ta'minlab beradigan bunkerga va shnekli taqsimlagichga ega seyalkani ishlab chiqish, uning texnologik ish jarayoni va parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, ekinlarni ilg'or texnologiyalar asosida parvarishlash, ish unumi yuqori bo'lgan texnika vositalarini ishlab chiqish va qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan, «...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash»<sup>2</sup> vazifalari belgilab qo'yilgan. Bu maqsadga erishish uchun, eng kam mehnat sarfi bilan agrotexnik tadbirlar sifatli bajarilishini ta'minlaydigan yangi texnologiya va texnikalar ishlab chiqish jumladan, lalmi maydonlarga g'alla ekishda foydalaniladigan texnika vositalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> FAO. World Food and Agriculture - Statistical Yearbook 2023. Rome. 2023. – Pp. 15-17. <https://doi.org/10.4060/cb1329en>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Farmoni.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni va 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazani yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>3</sup> va 2020-yil 11-maydagi PQ-4709-son “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Don ekish usullari va mashinalarini ishlab chiqish, ularning ish ko‘rsatkichlarini o‘rganish va parametrlarini asoslash va qo‘llash, bo‘yicha horijda F.Epplin, D.Menea, P.Cardei, J.E.Morrison, R.R.Allen Jr, D.E.Wilkins, K.Dirk, G.M.Buzenkov, A.Yu.Nesmiyan, N.A.Nabatyan, V.I.Ilin, S.A.Nukushev, E.J.Kaspakov, nishabliklarga don ekish bo‘yicha L.N.Burkov, N.M.Bespamyatnova, V.I.Taranin, N.S.Bosenko, V.V.Trufanov, N.F.Skuryatin, S.V.Meretskiy, N.F.Skuryatin, V.G.Kozlov, A.L.Jilyakov va boshqalar tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Respublikamizda tuproqqa ishlov berish bilan birga don ekish texnologiyalari va unda qo‘llaniladigan mashinalarning parametrlarini asoslash bo‘yicha A.To‘xtaqo‘ziev, T.S.Xudoyberdiyev, I.T.Ergashev, O.P.Auevov, A.K.Igamberdiyev, A.A.Ibragimov, M.T.Mansurov, A.Jaxongirov, A.T.Mirzaaxmedov, A.A.Vahobov, R.Murodov va boshqalar, nishabliklarga don ekish bo‘yicha esa F.M.Mamatov, R.X.Tovashovlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bajarilgan tadqiqotlar asosida ekin maydonlarini ekishga tayyorlash va ekish jarayonlarini amalga oshiradigan turli xil mashinalar, ishchi qismlar ishlab chiqilgan, ular qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinmoqda. Ammo, mazkur tadqiqot ishlarida nishabliklarda donni sifatli ekishni ta‘minlaydigan mashinani ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” MTU hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tuzilgan “Akademik harakatchanlik” dasturi doirasidagi innovatsion loyihani

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori.

moliyalashtirish shartnomasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AK-012/22 “Lalmi maydonlarga mo‘ljallangan yangi turdagi g‘alla seyalkasini ishlab chiqish” (2021-2022-y) innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** lalmi maydonlarga don ekish seyalkasi bunker va shnekli ta‘minlagichini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

lalmi maydonlar uchun don ekish seyalkasining bunker konstruksiyasini asoslash va uni seyalkada joylashtirish sxemasini ishlab chiqish;

shnekli ta‘minlagich va g‘ilof konstruktiv sxemasini ishlab chiqish va ularni seyalkada joylashtirish;

shnekli ta‘minlagich parametrlarini nazariy va tajribaviy asoslash;

seyalkaning xo‘jalik sinovlarini o‘tkazish va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqot ob‘ekti** sifatida nishabli dalalar, donning fizik-mexanik xossalari, shnekli ta‘minlagich bilan donning ta‘sirlashish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** seyalka ishchi qismlarining don bilan o‘zaro ta‘sirlashish jarayonlari va seyalkaning sifat ko‘rsatkichlarini agregat harakat tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlaridan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida matematikaviy hisoblash qoidalari, nazariy mexanika va dehqonchilik mexanikasi qonuniyatlari, matematik statistikaning tahlil usullari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish usullari hamda mavjud me‘yoriy hujjatlarda (O‘zDSt 3193: 2017, GOST 31345-2007, GOST 31345-2017, GOST 53056-2008,) belgilangan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

amaldagi tekis maydonlarga don ekishga mo‘ljallangan seyalkani va uning texnologik jarayonlarini takomillashtirish orqali tekis va lalmi maydonlar uchun universal don ekish seyalkasi ishlab chiqilgan;

seyalkaning nishabli dalalarda harakatlanishini hisobga olgan holda bunkerni uning qamrov kengligi bo‘yicha o‘rta qismida simmetrik joylashtirib, barqaror turg‘unligi ta‘minlangan;

bunker tagligi tuynugi shakli va o‘lchamlarining ekish me‘yoriga bog‘liqligi miqdorlash apparatiga tushayotgan donning miqdorini hisobga olgan holda aniqlangan;

shnekli ta‘minlagichi va g‘ilofi novli miqdorlash apparatining ustida kengligi o‘zaro teng va unga parallel holatda joylashtirilgan don ekish seyalkasi konstruksiyasi asoslangan;

shnekli ta‘minlagich parametrlari lalmi maydonlarda don ekish me‘yori va qatorlari bo‘yicha bir xil taqsimlashni hisobga olgan holda asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.**

Tekis va nishabli dalalarda sifatli don ekishni ta‘minlaydigan universal don ekish seyalkasi ishlab chiqilgan;

Lalmi maydonlarda seyalka doimiy ekish kengligi va belgilangan tup sonini ta‘minlab, g‘alla hosildorligini 15-30% gacha oshirishga erishilgan;

ishlab chiqilgan seyalkaning osma turda ishlashi hisobiga ish unumi oshib, yonilg‘i-moy mahsulotlari sarfining kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan nishabli maydonlarga don ekadigan seyalka sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lalmi maydonlarga don ekadigan seyalkaning texnologik ish jarayoni va konstruktiv sxemasi ishlab chiqilganligi va shnekli ta'minlagich parametrlari asoslanganligi, seyalkaning sifat va energetik ko'rsatkichlarini uning parametrlari va harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari aniqlanganligi hamda olingan matematik modellar va analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash ishchi qismlarining parametrlarini asoslashda qo'llanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan lalmi maydonlarga don ekish seyalkasi bilan nishabli dalalarga bug'doy ekilganida agrotexnika talablar sifatli bajarilganligi, lalmi maydonlardan foydalanish samarasi oshganligi, yonilg'i va umumiy xarajatlarning kamayishi va iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi bilan izohlanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Lalmi maydonlarga don ekish seyalkasi ishlab chiqish va uning shnekli ta'minlagichi parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

lalmi maydonlarga don ekish seyalkasi texnologik jarayonlari bajarilishining sifat ko'rsatkichlarini baholashga dastlabki talablar va seyalka konstruksiyasini loyihalashga texnik topshiriq ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 11-oktabrdagi 05/04-04-493-son ma'lumotnomasi). Natijada nishabli va tekis dalalarga don ekishni ta'minlayoladigan universal seyalkani ishlab chiqarish imkoni yaratilgan;

lalmi maydonlarga don ekish seyalkasi tajriba-sanoat nusxasi Ohangaron tumani fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 11-oktabrdagi 05/04-04-493-son ma'lumotnomasi). Natijada nishabli dalalarda bug'doy ekish to'liqligi 8-15 foizgacha oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobeatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Lalmi maydonlarga don ekishning hozirgi holati, tadqiqot maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida, respublikamiz lalmi maydonlariga don ekishning hozirgi holati, lalmi maydonlarga don ekishning mavjud texnologiyalari va texnika vositalari tahlil etilgan. Seyalka bunkerlarining tavsifi va ulardagi sochiluvchan materiallarning harakatlanish turlari, donni o'tuvchanlik koeffitsientini aniqlash usuli bayon etilgan. Spnek va shnekli don seyalkalari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va patent informatsion materiallarining tahliliy natijalari keltirilgan hamda tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Don seyalkasining miqdorlash apparatini don bilan ta'minlaydigan qurilma texnologik jarayoni va parametrlarini asoslash”** deb nomlangan ikkinchi bobida seyalkaning miqdorlash apparatini don bilan ta'minlaydigan qurilmaning sxemasi, texnologik ish jarayoni va uning aniqlanadigan parametrlari, taklif etilayotgan seyalkaga bunkerni joylashtirish, konstruksiyasi va donning shnekdagi harakatini asoslash, donni shnek perosidan g'ilof tubiga sirpanib tushish sharti, shnekdan uloqtirilayotgan donning tezligi va uloqtirilgan donning traektoriyasini aniqlash, taklif etilgan seyalkaning texnologik ish jarayoniga qo'yilgan dastlabki agroteknik talablar bo'yicha nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Don seyalkasini universallashtirish, ya'ni tekis va nishabli dalalarda sifatli don ekilishini ta'minlashi uchun takomillashtirilgan seyalka konstruksiyasi ishlab chiqildi (1-rasm).


Taklif etilayotgan seyalka rama 1, o'ng 2 va chap bunker 3, bunker tubidagi tuynuk 4, to'siq 5, shnek 6, shnek perosi 7, g'ilof 8, g'ilof tubidagi tuynuklar 9, tayanch g'ildirak 10, zanjirli uzatma 11, novli g'altak 12, miqdorlash apparati 13, quti 14 rostlash dastasi 15, rostlash gaykasi 16, tirqish 17, urug' o'tkazgich 18, quvur 19 va ekish disklari 20 dan tashkil topgan.

Shnek perosi va g'ilof orasidagi tirqish bug'doyning qalinligidan kichik. Bu holat donni shikastlanishdan saqlaydi.


Taklif etilayotgan seyalka quyidagicha ishlaydi: bunkerlar 2 va 3 donga to'ldiriladi va yordamchi xodim tomonidan to'sgich 5 orqali tuynuk 4 belgilangan shkala bo'yicha ochiladi, so'ngra agregat harakatga keltiriladi.

Tayanch g'ildirak 10 dan zanjirli uzatma 11 orqali shnekli ta'minlagich 6 aylanma harkatga keltiriladi.


G'ilofning tubi bo'yicha harakatlanayotgan donning bir qismi, unda joylashgan tuynuk 9 ustiga kelganda miqdorlash apparati 14 ga tushadi.



a)



b)



v)


a) seyalkaning old tomondan ko‘rinish sxemasi; b) seyalkaning A-A qirqim bo‘yicha sxemasi; v) shnekli miqdorlagich va miqdorlash apparatining texnologik ish jarayonlari sxemasi.

### 1-rasm. Taklif etilayotgan seyalkaning sxemalari

Donning urug‘ o‘tkazgich va keyingi harakatlanish jarayonlari va ekilishi amaldagi seyalkaniki kabi amalga oshiriladi.


Taklif etilayotgan seyalka osma turda bo‘lganligi va ish kengligi bo‘yicha konstruksiyasi o‘zaro teng ikki qismdan tashkil topganligi uchun bunkerning joylashgan o‘rnini va o‘lchamlarini asoslash lozim. Bunker bir butun ko‘rinishga ega bo‘lsada, kengligi bo‘yicha to‘siq yordamida, teng ikkiga ajratilgan. Bunkerni izohlaydigan ko‘rsatkichlaridan biri, uning yon tomonlarini gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi hisoblanadi. Ushbu burchak bug‘doy donini metalga ishqalanish burchagidan katta bo‘lishi shart. Bunker seyalkaning o‘rtasiga joylashtirilganida, bunkerning birgina, ikki

yon tomonlari 2 ning o'rnatilishiga nishablikning ta'siri sezilarli darajada bo'ladi (2-rasm).



1, 2, 3-mos holda bunkerning ichki old, o'ng yon va tashqi orqa tomonlari  
**2-rasm. Seyalka bunkeri parametrlarini asoslashga doir sxema**

Yuqoridagi holatni asoslash uchun bunkerning chap yon devorida bug'doyni sirpanib, uning tubiga harakatlanish shartini ta'minlanishini tadqiq etamiz (3-rasm).



1-nishabli dala; 2-bunker yon tomoni  
**3-rasm. Bunker yon tomonidagi donning sirpanish shartini bajarishga oid sxema**

Donga quyidagi kuchlar ta'sir etadi: og'irlik  $G$  kuchi, ishqalanish  $F_{ishq}$  kuchi va normal  $N$  kuchi. Bunker yon tomoni  $\alpha_1 = \alpha_b - \alpha_n$  burchakda o'rnatilganligini e'tiborga olsak,  $G$  kuchini  $G \sin \alpha_1$  va  $G \cos \alpha_1$  tashkil etuvchilariga ajratish mumkin. Don yon tomon bo'ylab bunker tubiga sirpanishi uchun quyidagi shart bajarilishi lozim (3-rasm),

$$G \sin \alpha_1 > F_{ishq} \quad (1)$$

(1) ifoda hadlariga ularning tegishli qiymatlarini qo'yib,

$$\alpha_1 > \varphi \quad \text{yoki} \quad \alpha_b - \alpha_n > \varphi \quad (2)$$

bunda  $\alpha_b$ -bunkerni nishablikka nisbatan o'rnatilish burchagi, gradus;  
 $\alpha_n$ -gorizontga nisbatan dalaning nishablik burchagi, gradus.

(2) ifodani  $\alpha_b$  ga nisbatan yechib,

$$\alpha_b > \varphi + \alpha_n \quad (3)$$


(3) ifodaga  $\varphi_{o'rt}=28^\circ$  va  $\alpha_n=22^\circ$  qiymatlarni qo'yib hisoblaganimizda, bunker chap yon devorini gorizontga nisbatan kamida  $50^\circ$  burchakda o'rnatishimiz lozimligi kelib chiqadi.

Shnek bir vaqtda transporter va ta'minlagich vazifalarini bajaradi. Dastlab donning shnek bo'yicha pastdan yuqoriga harakatlanish jarayonining nazariy elementlarini ko'rib chiqamiz.

Shneklar konstruksiyasi va ular bilan bajariladigan texnologik jarayonlar bo'yicha adabiyotlar sharhi natijalariga asoslanib, shnek qadamini don ekilgan qatorlar orasi kengligiga, uning diametrini esa qadamiga teng qabul qilindi.

Seyalkada donning holati va uning nisbiy tezligi ham o'zgaruvchan bo'lib, nisbiy tezlikni aniqlash bilan bog'liq masalalarni echishda Lagranjning ikkinchi xil tenglamasidan foydalaniladi.

Qiya holatda joylashgan shnek perosidagi donga og'irlik  $G$ , g'ilof devorining  $F_1$  va perosining ishqalanish  $F_2$  kuchlari ta'sir etadi (4-rasm).



Qo'zg'almas koordinata sifatida Dekart koordinatalar sistemasini qabul qilamiz. Bunda  $Z$  o'qi shnek valiga mos keladi va vertikalga nisbatan  $\beta$  burchakka  $X$  o'qi atrofida burib engashgan. Umumlashtirilgan koordinata, shnekning vint chizig'i  $S$  bo'yicha yo'naltirilgan bo'lsin (4-rasm).

- 1-shnek perosi; 2-shnek vali;  
3-shnek g'ilofi; 4-shnek tuynugi.  
**4-rasm. Shnek ishchi sirtida harakatlanayotgan donga ta'sir etadigan kuchlar sxemasi**

Lagranjning ikkinchi xil tenglamasi,

$$\frac{d}{dt} \cdot \frac{\partial T}{\partial \dot{S}} - \frac{\partial T}{\partial S} = Q_S \quad (4)$$

bunda  $T$  – donning kinetik energiyasi,  $D_j$ ;  $Q_S$  – umumlashgan  $S$  koordinataga mos umumlashgan kuch,  $N$ .

4 – rasmga asosan,

$$Q_S = \sum_{i=1}^3 F_{KS} = F_1 \cos(\alpha + \psi) - F_2 - G \cos \beta \sin \alpha + G \sin \beta \sin \gamma \cos \alpha, \quad (5)$$

bunda  $F_1$  – donning g'ilof devoriga ishqalanish kuchi,  $N$ ;

$F_2$  – donning shnek perosiga ishqalanish kuchi, N;  
 $\alpha$  – vint chizig‘ining qiyalik burchagi, gradus;  
 $\psi$  – ko‘chirma va absolyut tezliklar vektorlari orasidagi burchak, gradus.

Matematik amallar bajarib, (4) va (5) ifodalardan shnek vali bo‘ylab donning o‘rtacha harakat tezligini aniqlash mumkin,

$$\dot{S}_{o'rt}^2 = \frac{\omega r(2-f_2 \sin \alpha)}{2} + \sqrt{\frac{(f_2 + \sin \alpha) r g \cdot \cos \beta}{f_1} + \left(\frac{f_2 \omega r + \sin \alpha}{2}\right)^2} \quad (6)$$

(6) ifodadan shnekning don ko‘chirilmaydigan kritik burchak tezligi quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi,


$$\omega_K = \sqrt{\frac{g \cos \beta t g(\alpha + \varphi_2)}{r f_1}} \quad (7)$$

(7) ifoda bo‘yicha shnekning qiyaligi  $\beta=70-80^\circ$ ,  $\alpha=40-45^\circ$ ,  $g=9,8 \text{ m/s}^2$ ,  $\varphi_2=35^\circ$ ,  $r=0,07 \text{ m}$  va  $f_1=0,3$  bo‘lganda uning  $\omega_K = 25,34 \text{ s}^{-1}$  kritik burchak tezligi. Shnekning ushbu burchak tezligida donning ko‘chishi (transportirovka) sodir bo‘lmaydi.

$$\omega_K = \sqrt{\frac{g \cos \beta (f_2 \cdot \cos \alpha + \sin \alpha)}{f_1 r (\cos \alpha - f_2 \cdot \sin \alpha)}} \quad (8)$$

(8) ifoda bo‘yicha shnekning qiyaligi  $\beta=70-80^\circ$ ,  $\alpha=40-45^\circ$ ,  $g=9,8 \text{ m/s}^2$ ,  $\varphi_2=35^\circ$ ,  $r=0,07 \text{ m}$  va  $f_1=0,3$  bo‘lganda uning burchak tezligi,  $\omega_K = 1,33 \text{ s}^{-1}$ . Donning ko‘chishi sodir bo‘ladigan shnekning kichik burchak tezligi 12 r/min dan boshlanar ekan.

Texnologik jarayon bo‘yicha, don shnek perosidan uloqtirilganidan keyin, o‘z harakati davomida, g‘ilof va miqdorlash apparatini tutashtiradigan tuynuk devoriga urilishi, so‘ngra miqdorlash apparatiga tushishi lozim.



Don uloqtirilgandan keyingi traektoriyasining harakat tenglamasini tuzamiz. Havoning donga ko‘rsatadigan qarshiligini sezilarli darajada emas deb qabul qilindi. Don tuynuk devoriga urilganidagi tiklanish koeffitsienti birdan kichik. Tuynuk yon devorlari vertikal joylashtirilgan. Uloqti-rilgan don XOY tekislikda OX o‘qiga nisbatan  $\tau$  burchakda harakatlanadi (5-rasm).

### 5-rasm. Don traektoriyasini qurish sxemasi

Donning XOY tekislikdagi harakatida unga birgina G og‘irlik


kuchi ta'sir etib, uning differensial tenglamasi,

$$m\ddot{x}=0; \quad m\ddot{y}=0 \quad (9)$$

Matematik amallar bajarib, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz,

$$y = xtg\tau + \frac{gx^2}{2v_a^2 \cos^2\tau}. \quad (10)$$

(10) ifodadagi burchak  $\tau$  shnek aylanishlar soniga bog'liq holda  $15-35^\circ$  oraliqda o'zgaradi. (10) tenglamadagi  $x$  ning o'zgarish chegarasi  $0 < x < 30$  mm bo'lib, 5 mm oraliq bilan hisoblandi va  $y$  funksiyaning o'zgarish grafigi qurildi (6-rasm). 6-rasmdagi grafikning tahliliy natijasi ko'rsatishicha,  $X$  masofaning ortib borishi bilan funksiya  $Y$  botiq parabola ko'rinishida o'zgarar ekan.



**6-rasm. Donning havodagi harakatida  $Y$  funksiyaning  $X$  argumentga bog'liq o'zgarish grafigi**


Dissertatsiyaning “Eksperimental tadqiqotlar va ularning natijalari” deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish usullari va asbob-uskunalar, seyalka bunker tagligidagi tuynuk shakli va o'lchamlarini ekish me'yori va seyalka qamrov kengligi bo'yicha donni notekis taqsimlanishiga ta'sirini o'rganish natijalari, shnek aylanishlar tezligini umumiy va qatorlar bo'yicha ekish me'yori hamda qamrov kengligi bo'yicha donni notekis taqsimlanishiga ta'sirini o'rganish natijalari, agregat tezligini ekish me'yori va seyalka qamrov kengligi bo'yicha donni notekis taqsimlanishiga ta'sirini o'rganish natijalari, tajribalarni matematik rejalashtirish usuli bilan shnekli ta'minlagichning parametrlarini maqbullashtirish, shnek va novli miqdorlagichlarni aylantirishga talab qilinadigan quvvatni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Taklif etilgan seyalkaning laboratoriya ko'rinishi 7-rasmda keltirilgan.



1-seyalkaning laboriya qurilmasi; 2-transportir; 3-gidromexanik tal;  
4-bunker; 5-reostat; 6-elektrodvigatel; 7-qoplar; 8-qo‘shimcha qop  
**7-rasm. Taklif etilgan seyalka laboriya qurilmasining engashgan holatdagi ko‘rinishi**

Seyalka bunker tagligidagi tuynuk shakli va o‘lchamlarini seyalka qamrov kengligi bo‘yicha donni notekis taqsimlanishiga ta’siri natijalari 8-rasmda keltirilgan.




1-tuynuk yuzasi 280 mm<sup>2</sup>; 2- tuynuk yuzasi 300 mm<sup>2</sup>; 3- tuynuk yuzasi 320 mm<sup>2</sup>

**8-rasm. To‘rtburchak shaklidagi tuynuklardan tushayotgan don miqdorining qamrov kengligi bo‘yicha notekis taqsimlanish grafigi**

8-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tuynuk yuzasi 280 mm<sup>2</sup> bo‘lganda, ekish me‘yori ham belgilanganidan kam, notekislik esa  $\pm 3\%$  dan yuqori, tuynuk yuzasi 320 mm<sup>2</sup> bo‘lganda, ekish me‘yori belgilanganidan ortiq, notekislik ham  $\pm 3\%$  dan yuqori, tuynuk yuzasi 300 mm<sup>2</sup> bo‘lganda, ekish me‘yori belgilanganidek, notekislik ham  $\pm 3\%$  dan kichik bo‘lib, agrotexnik talabga mos keladi. Ushbu tahliliy natijaga asoslanib, tuynuk yuzasi 300 mm<sup>2</sup> qabul qilindi.

Ekish me'yorini shnek aylanishlar tezligiga bog'liqligi 9-rasmda keltirilgan.



1-50 r/min; 2-60 r/min; 3-70 r/min


**9-rasm. Shnekning turli aylanishlar tezligida urug'ni asosiy va qo'shimcha qoplar bo'yicha taqsimlanish grafiklari**

Grafik tahlilining ko'rsatishicha, shnek aylanishlar tezligi 50 r/min bo'lganda 11 va 12 idishlarga don yetmay qolishi kuzatildi. Bu holat shnek aylanishi 0,833 ayl/s ga teng bo'lib, shnek to'liq bir marta aylanib ulgurmaganligini bildiradi, ya'ni shnek donni birinchi miqdorlagichdan ikkinchisiga belgilanganiga nisbatan, sekin yetkazadi. Natijada 11 va 12 idishlarga don yetmaydi, demak seyalkaning ikki tomonidagi oxirgi ikki qatorlarga don ekilmaydi.

Shnek aylanishlar tezligi 60 r/min bo'lganda esa 12 ta miqdor-lagichning barchasi don bilan ta'minlanib, qo'shimcha idishga don tushmadi. Shnekning ishlashi talab darajasida bo'ldi. Bu holatni shnek qadamini bug'doy qator orasi kengligiga teng etib tanlanishi va u bir sekunda bir marta aylanib, g'ilo fdagi donni 15 sm ga siljitishi bajarilayotgan texnologik jarayondagi parametrlarni to'g'ri asoslanganligining belgisidir deb izohlash mumkin.

Shnek aylanishlar tezligi 70 r/min bo'lganda, o'n ikkita qoplar ga me'yoridagi miqdorda don tushib, ortib qolgan donning qo'shimcha idishga tushishi kuzatildi. Bu holat shnek aylanishi 1,16 ayl/s ga teng bo'lib, shnek to'liq bir marta aylanishi o'rniga 1,16 marta aylanayotganligini bildiradi, belgilanganiga nisbatan, 16 foiz tez yetkazishi kuzatildi.

10-rasmda keltirilgan grafik tahlilidan, agregatning 5, 6 va 7 km/h tezliklarida donni qoplar, ya'ni qatorlar bo'yicha notekis taqsimlanishi belgilanganidan kichikroq va ekish me'yoriga mos keladi. Agregat tezligi 4 km/h bo'lganda notekislik va ekish me'yori belgilanganidan yuqori. Grafik tahlili natijalaridan 5, 6 va 7 km/h tezliklarda tajribalarni davom ettirish maqsadga muvofiqligini ko'rish mumkin.



**10-rasm. Agregatning turli harakat tezligida donni qoplar bo‘yicha notekis taqsimlanish grafiklari**

Bir omilli eksperimentlar natijalari asosida tajribalarni matematik rejalashtirish usuli bilan shnekli ta‘minlagichning parametrlari maqbullashtirildi.

Tajribalarda olingan ma‘lumotlarga belgilangan tartibda ishlov berilib, adekvat ifodalovchi qo‘yidagi regressiya tenglamalari olindi.

urug‘ ekish me‘yori bo‘yicha ( $Y_1$ )

$$Y_1 = 101,5 + 53,4 X_1 + 40,350 X_2 - 35,883 X_3 - 3,533 X_1^2 + 28,717 X_1 X_2 - 21,6 X_1 X_3 - 0,417 X_2^2 - 28,683 X_2 X_3 + 3,050 X_3^2 \quad (11)$$


urug‘larni ekish notekisligi bo‘yicha ( $Y_2$ )

$$Y_2 = 2,264 + 0,029 X_1 - 0,321 X_2 - 0,041 X_3 - 0,023 X_1^2 + 0,043 X_1 X_2 + 0,014 X_1 X_3 + 0,471 X_2^2 + 0,012 X_2 X_3 + 0,013 X_3^2 \quad (12)$$


Olingan (11 va 12) regressiya tenglamalar va ular bo‘yicha qurilgan grafik bog‘lanishlarning (11 va 12-rasmlar) tahlili shuni ko‘rsatadiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

11, *a* – rasmda keltirilgan grafiklarning tahlili quyidagicha bo‘ldi: agregatning turli tezliklarida, tuynuk yuzasi kattalashib borishi bilan ekish me‘yorining oshib borishi kuzatilyapdi. Ekish me‘yori tuynuk yuzasining miqdoriga to‘g‘ri chiziqli qonuniyat bo‘yicha bog‘langanligini ko‘rish mumkin.

11, *b* – rasmda keltirilgan grafiklarning tahlili esa quyidagicha bo‘ldi: belgilangan miqdordagi donni ekish uchun, agregatning turli tezliklarida shnekning aylanishlar tezligi oshib borishi bilan ekish me‘yorining oshib borishi kuzatilyapdi. Ekish me‘yori va shnek aylanishlar tezligiga botiq parabola qonuniyati bo‘yicha bog‘langanligini ko‘rish mumkin.




a)




b)

1,2 va 3 mos ravishda  $X_3$  omil -1, 0 va 1 sathlarda bo‘lganda  
**11-rasm. Urug‘ ekish me‘yorini  $X_1$  (a) va  $X_2$  (b) omillarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi**

12, a – rasmda keltirilgan grafiklarning tahlili quyidagicha bo‘ldi: agregatning turli tezliklarida, tuynuk yuzasi kattalashib borishi bilan donni notekis taqsimlanishi dastlab keskin oshib borishi kuzatilayapdi, bu holat yuza  $300 \text{ mm}^2$  bo‘lguniga qadar davom etmoqda. Yuza  $300\text{-}320 \text{ mm}^2$  oralig‘ida bo‘lganda, notekislik sezilarli darajada o‘zgarmagan. Donning mashina qamrov kengligi bo‘yicha notekis taqsimlanishi tuynuk yuzasiga qabariq parabola qonuniyati bilan bog‘langanligini ko‘rish mumkin.



a)



b)

1,2 va 3 mos ravishda  $X_3$  omil -1, 0 va 1 bo‘lganda  
**12-rasm. Urug‘ ekish notekisligini  $X_1$  (a) va  $X_2$  (b) omillarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi**

12, b – rasmda keltirilgan grafiklarning tahlili quyidagicha bo‘ldi: agregatning turli tezliklarida, shnek aylanish tezligining oshib borishi bilan donni notekis taqsimlanishi

keskin pasayib borib, 60-62 r/min da eng kichik qiymatga erishgan. Shnek aylanishlar soni 70 r/min ga tomon oshib borishi bilan notekis taqsimlanishi ham oshib borgan.

(3.2) va (3.3) regressiya tenglamalari “ $Y_1$ ” mezon- urug‘ ekish me‘yorini 110 kg/ha,  $Y_2$  mezonni- donni mashina qamrov kengligi bo‘yicha notekis taqsimlanishi  $\pm 3\%$  dan kichik bo‘lishi shartlarini ta‘minlaydigan quyidagi qiymatlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

### Shnekli ta‘minlagichning maqbul qiymatlari

| $X_3$ |              | $X_1$  |                         | $X_2$  |               |
|-------|--------------|--------|-------------------------|--------|---------------|
| kod.  | natija, km/h | kod.   | natija, mm <sup>2</sup> | kod.   | natija, r/min |
| 1     | 7            | 0,831  | 316,63                  | 0,313  | 63,13         |
| 0     | 6            | 0,098  | 301,96                  | 0,074  | 60,74         |
| -1    | 5            | -0,242 | 295,17                  | -0,213 | 57,87         |

Demak agregat 5,0-7,0 km/h ish tezliklarida gektariga 110 kg urug‘ ekib, notekisligi  $\pm 3\%$  yuqori bo‘lmagan holda ishlashi uchun, bunker tagligi tuynugining yuzasi 295-316 mm<sup>2</sup>, shnek aylanishlar soni 58-63 r/min oralig‘ida bo‘lishi lozim.

Dissertatsiyaning “**Lalmi maydonlar uchun mo‘ljallangan don ekish seyalkasining texnik-iqtisodiy hisobi va ko‘rsatkichlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida taklif etilgan seyalka sanoat-tajriba nusxasining texnik tavsifi, xo‘jalik sinovlarining natijalari va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan seyalkani qo‘llash evaziga asosiy vaqtdagi ish unumini 14,4% ga oshirish va birlik maydonga sarflanadigan xarajatlarni 12,4 % ga kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Taklif etilgan seyalkaning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini yaxshilanishi va hosildorlikni oshirilishi evaziga jami 14378828 so‘m iqtisodiy samara olish imkoniyati yaratildi.

## XULOSA

“Lalmi maydonlarga don ekish seyalkasi bunkeri va shnekli ta‘minlagichini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Respublikamizda har yili 200-250 ming gektar lalmi maydonda g‘alla etishtirilishi, aholini un va un mahsulotlari, chorvani esa ozuqaga bo‘lgan talabini qondirishdagi ulushi sezilarli darajada hisoblanadi, biroq amaldagi don ekish seyalkalari tekis dalalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, lalmi maydonlarda sifatli don ekishni ta‘minlay olmaydi va natijada agrotexnika talablari qanoatlantirilmaydi.

2. Lalmi maydonlar uchun mo‘ljallangan don seyalkalarini ishlab chiqishda, turli holatdagi jismlarni surish texnologik jarayonlarini sifatli bajaraoladigan shneklardan foydalanish yetarlicha o‘rganilmagan va bunkerni seyalkaning markaziy qismiga simmetrik joylashtirish, uni har xil nishablikdagi lalmi maydonlarda barqaror harakatini ta‘minlash imkonini beradi.

3. Bunkerning nishablik pastki tomonidagi yon devorini gorizontga nisbatan kamida 50° burchakda o‘rnatish donni undan sirpanib tuynukka tushishini ta‘minlaydi.

4. Shnekning aylanishlar soni 60 r/min da bo'lishi va bir marta aylanganida, g'ilof tubi bo'yicha, 15 sm masofaga donni siljtilishi, barcha miqdorlash apparatlarini bir vaqtda don bilan ta'minlash imkonini beradi.

5. Bunker tagligi tuynugi to'rtburchak shaklida bo'lib, yuzasi 300-302 mm<sup>2</sup> ni tashkil etishi, belgilangan me'yordagi donni tushish va agregat 6 km/h tezlikda harakatlanishi, shnekli ta'minlagich esa 60-61 r/min tezlikda aylanishi, seyalka qamrov kengligi bo'yicha donni belgilanganiga nisbatan  $\pm 3\%$  dan kichik me'yorda hamda uni notekis taqsimlanishini  $\pm 3\%$  dan kichik bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

6. Seyalkaning shnekli ta'minlagich va novli miqdorlagichlarini ishchi holatda aylantirishga sarflanadigan quvvat 1,758 kVt ni tashkil etib, traktor umumiy quvvatiga nisbatan o'ta kichik hisoblanadi.

7. Agregatning osma turda bajarilishi, uning asosiy vaqtdagi ish unumini 14,4% ga oshirish va birlik maydonga sarflanadigan xarajatlarni 12,4 % ga kamaytirish imkonini beradi.

8. Taklif etilgan seyalkaning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini yaxshilanishi va hosildorlikni oshirilishi evaziga jami 14378828 so'm iqtisodiy samarasi olish imkoniyati yaratildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.10.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ «ТАШКЕНТСКОМ  
ИНСТИТУТЕ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ  
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И  
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

**ХУДАЙКУЛОВ РУСТАМ ФАЙЗИЕВИЧ**

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РАЗРАБОТКА ШНЕКОВОГО  
ПИТАТЕЛЯ И БУНКЕРА БОГАРНОЙ ЗЕРНОВОЙ СЕЯЛКИ**

**05.07.01 - Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация  
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Ташкент–2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.2.PhD/T4734

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства".

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: (www.tiiame.uz) и Информационном образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Худаяров Бердирасул Мирзаевич,  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Игамбердиев Аскар Кимсанович  
доктор технических наук, профессор

Равнанов Шавкат Улашович  
кандидат технических наук,  
старший научный сотрудник

**Ведущая организация:** Центр сертификации и испытаний  
сельскохозяйственной техники и технологий при  
Министерстве сельского хозяйства Республики  
Узбекистан

Защита диссертации состоится «13 февраля» 2025 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета № DSc.03/30.12.2019.T.10.01 при Национальном исследовательском университете "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства" (Адрес: 100000, Ташкент, улица Кори Ниязий дом 39. Тел./факс: (99871) 237-09-45 e-mail: admin.@tiiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального исследовательского университета "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства" (регистрационный номер 313). (Адрес: 100000, Ташкент, улица Кори Ниязий дом 39. Тел./факс: (99871) 237-09-45 e-mail: admin.@tiiame.uz).

Автореферат диссертации разослан «03» февраля 2025 года.  
(Протокол рассылки № 98 от «03» февраля 2025 года).



*[Handwritten signatures in blue ink over the seal]*

**Б.С.Мирзаев**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.т.н., профессор

**У.Т.Кузнев**  
Ученый секретарь научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, PhD, доцент

**К.Д.Астанакулов**  
Председатель научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению ученых степеней,  
д.т.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В то время, когда спрос на продукты питания, в том числе на зерно, растет вместе с населением планеты, использование энерго- и ресурсосберегающих технологий и оборудования при выращивании зерна, особенно при его посадке, занимает одно из ведущих мест. По данным Всемирной продовольственной организации (ФАО), «в настоящее время во всем мире производится 730 миллионов тонн зерновых культур»<sup>1</sup>, и за последнее десятилетие этот показатель увеличился на 15,3%, а повышение качества и экономия ресурсов, в свою очередь, требуют широкого внедрения, посевных машин с низким металло- и энергоемкостью. В связи с этим важным считается использование сеялок, предназначенных для работы на богаре, так как рельеф засушливых территорий уникален и в основном состоит из наклонных полей.

